

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

TILSHUNOSLIK KAFEDRASI

«Hozirgi o'zbek adabiy tili» fanidan

ma'ruza matnlari

(Bakalavr yo'nalishi kunduzgi bo'lim II bosqich talabalari uchun)

Andijon - 2016

Ushbu ma'ruza matnlari Tilshunoslik kafedrasining
2016- yil 28- avgustdagি 1- son qarori bilan tavsiya qilingan

Tuzuvchi: katta o'qituvchi **D. Matyoqubova.**

Taqrizchi: F.f.d. dots. **D.Nabiyeva.**

So'z boshi

Mustaqillik qo'lga kiritilgandan so'ng prezidentimiz ko'rsatmasi bilan ta'lim tizimini tubdan yaxshilashga jiddiy e'tibor berildi. Shu sababli «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ishlab chiqildi. Dasturga muvofiq ta'lim tizimida katta sifatiy o'zgarishlar yuz berdi. Yurtboshimiz I.A.Karimov o'qitish jarayonini tubdan o'zgartirishga, o'quvchilarni passiv kuzatuvchidan faol, mushohadali, fikrlaydigan sub'ektga aylantirishga da'vat etmoqdalar. O'qitishning bosh maqsadi o'quvchilar fikrini o'stirishga qaratildi. Fikr o'stirish esa bevosita nutq o'stirish demakdir.

Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida xizmat qiluvchi har bir mutaxassis uchun nutq madaniyatini egallash hayotiy zaruratlardir. Shuning uchun ham har qanday madaniyatli kishi o'z fikrini bayon qilayotgan lisoniy materiallardan to'g'ri foydalanishni, har bir til vositasini kerakli va lozim bo'lgan o'rinda mantiqan va grammatik jihatdan to'g'ri qo'llashni o'rganmoqi lozim. Zero jamiyat madaniyati nutqiy madaniyatsiz bo'lmaydi.

«O'z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursisida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin» (I.Karimov. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori).

«Hozirgi o'zbek adabiy tili» fanidan tuzilgan ushbu ma'ruza matnlari filologiya fakultetlarining kunduzgi bo'lim II bosqich talabalariga mo'ljalangan. Ushbu bosqichda “Hozirgi o'zbek adabiy tili” fanining morfemika bo'limi o'rgatiladi.

Mavzu: Morfemik sathning til sathlari orasidagi o'rni

Reja

1. Lingvistik sath tushunchasi.
2. Til sathlari o'rtasidagi munosabatlar.

3. Paradigmatik , sintagmatik munosabat.
4. Pog'onaviy munosabat.
5. Morfemik sathning til sathlari o'rtasidagi o'rni.

Тилнинг қиммат жиҳатдан бир хил бирликларининг йигиндиси лингвистик сатҳ деб юритилади. Масалан, фонологик сатҳ, морфемик сатҳ каби. Маълум бир тилдаги фонемаларнинг ўзаро муносабати мажмуи фонологик сатҳни, морфемалар муносабати мажмуи эса морфемик сатҳни ташкил этади.

Лингвистик сатҳ тушунчаси ҳозирги тилшуносликда кенг тарқалган бўлса ҳам, лекин тилни сатҳларга бўлишда хилма-хиллик кўзга ташланади. Шундай бўлишга қарамасдан, деярли барча тилшунослар тилнинг қуидаги сатҳларини бирдек тан оладилар: 1) фонологик сатҳ, 2) морфемик сатҳ, 3) лексик сатҳ, 4) морфологик сатҳ,, 5) синтактик сатҳ, 6) устсинтактик (суперсинтактик) сатҳ.

Юқоридаги сатҳларнинг ҳар бири ўзининг бирлигига эга: фонологик сатҳ бирлиги фонема; морфемик сатҳ, бирлиги - морфема; лексик сатҳ бирлиги - лексема; морфологик сатҳ бирлиги -сўз шакл; синтактик сатҳ бирлиги - синтаксема; устсинтактик сатҳ бирлиги - матн (текст).

Кўрсатиб ўтилган сатҳлар қуидан юқорига қараб қатъий тартибда жойлашади. Ҳар бир юқори сатҳ. бирлиги ўзидан бир даража қуи сатҳ бирликларнинг синтагматик муносабатидан ташкил топади (бундан факат лексик сатҳ бирлиги мустасно), фонемаларнинг синтагмактик муносабатидан морфемик сатҳ бирлиги морфема ҳосил бўлади (шу жумладан лексик морфема ҳам)¹.

Морфемаларнинг синтагматик муносабатидан эса морфологик сатҳ бирлиги бўлган сўз шакл вужудга келади. Сўз шакл, ўз навбатида, морфемаларга (тўғрироғи, морфема вариантларига) бўлинади ва бошқалар.

¹ Лексик сатҳ бирлиги саналувчи туб лексемалар лексик морфема сифатида қаралади. Туб лексемалар “морфемалардан топади”, “Морфемалар бўлинади” қабилида каралмайди. Ясамалар эса худди шу тайомилига амал қиласи.

Тил системасидаги ҳар бир сатҳ бирлиги - фонема, морфема, лексема, сўз шакл, синтаксема, матн лисоний (лингвистик) бирликлар саналади.

Лисоний бирликлар система таркибида маълум муносабатда бўлади. Уларни дастлаб икки гурухга ажратиш мумкин: 1) бир сатҳга мансуб бўлган бирликлар муносабати; 2) турли сатҳга мансуб бўлган бирликлар муносабати, яъни сатҳлараро муносабат.

1. Бир сатҳга мансуб бирликлар муносабати

Бир сатҳга мансуб бўлган бирликлар ўзаро икки хил муносабатга киришади: 1) уядошлиқ (парадигматик) муносабати; 2) кетма-кетлик муносабати.

Бир сатҳга мансуб бўлган, қиммат жиҳатдан бир хил бирликларнинг маълум умумий белги асосида бир гурухга (уяга) бирлашуви уядошлиқ муносабати саналади.

Лисоний бирликларнинг уядошлиқ муносабатини белгилашда кўпроқ маъно умумийлиги белгиси хизмат қиласди.

Шуни таъкидлаш керакки, маълум умумий маъно асосида бир уяга бирлаштириш учун асос бўлиб хизмат қилган умумий маъно такрорланиши лозим. Ана шу такрорланувчи маъно (сема) ҳар бир аъзони айни шу уяга (парадигмага) бирлаштириш учун хизмат қиласди. Шу билан бирга уянинг ҳар қайси аъзоси бошқа аъзодан маълум белгиларига кўра фарқланиш хусусиятига ҳам эга. Ана шу фарқланиш белгиси билан уянинг алоҳида бирлиги эканлигини сақлаб туради. Демак, ҳар бир аъзо бирлаштирувчи ва фарқловчи семалар бирлигидан ташкил топади. Бирлаштирувчи сема ҳар бир аъзони маълум мазмуний уяга (парадигмага) бирлашишни, фарқловчи сема эса уя таркибидаги ҳар бир аъзонинг ўзига хослигини, алоҳидалигини кўрсатиб туради.

Бир сатҳга мансуб бўлган бирликлар нутқ жараёнида ўзаро кетма-кет боғланиб маълумот маълум аҳоорот ташиш учун хизмат қиласди. Ҳар бир лисоний бирликтининг вазифаси кетма-кетлик (синтагматик) муносабатига

киришганда намоён бўлади. Нутқ жараёнида иккита бирликни ҳеч қачон бир вақтда талаффуз қила олмаймиз.

Муайян чўзиқликка эга бўлган икки ва ундан ортиқ элементларнинг кетма-кет муносабати кетма-кетлик (синтагматик) муносабат саналади. Масалан, ишчиларга сўз шакли таркибидаги иш-чи-лар-га морфемалари бир қаторда кетма-кет жойлашади.

Синтагматик муносабат ёрдамида тилнинг бош вазифаси коммуникатив вазифаси амалга ошади.

Бир сатҳга мансуб, мураккаблик даражасига қўра бир хил бўлган лисоний бирликлар муносабатидан ташқари, турли ! сатҳга мансуб, турли мураккабликдаги бирликлар ҳам ўзаро муносабатга киришади. Мураккаблик даражаси турли хил бўлган, икки хил сатҳга мансуб лисоний бирликлар муносабати поғонали муносабат саналади. Бундай муносабатни «...дан ташкил топади», «... таркибига киради» ифодаси билан беришмумкин. Демак, морфологик сатҳ бирлиги бўлган сўз шакл морфемик сатҳ бирлиги бўлган морфемаларнинг (морфема вариантларининг) ўзаро синтагматик муносабатидан ташкил топади. Морфема (морфема варианти) эса сўз шакл таркибига киради.

Лисоний бирликларнинг мураккаблик даражаси нисбийдир. Унинг мураккаб деб ном олиниши ўзидан бир даража қуи сатҳ, бирлигига нисбатандир. Масалан, морфемик сатҳ бирлиги бўлган морфеманинг мураккаб (қурилма, система) деб ном олиниши фонологик сатҳ бирлиги бўлган фонемага нисбатандир. Морфема, ўз навбатида, морфологик сатҳ бирлиги бўлган сўз шакл учун элемент, қурилиш (конструктив) аъзоси саналади. Сўз шакл морфемага нисбатан мураккаб, синтаксемага нисбатан эса элемент ҳисобланади.

Savollar

1. “Hozirgi o’zbek adabiy tili(Morfemika)” boshqa qaysi fanlar bilan o’zaro aloqador?
2. Mazkur fanning o’rganish ob’yekti nima?

3. “Hozirgi o’zbek adabiy tili(Morfemika)” fanining asosiy vazifasi nimadan iborat?
4. Lingvistik sath deb nimaga aytiladi?
5. Morfemikaning til sathlari orasidagi o’rni qanday?
6. Paradigmatik munosabat nimaga aytiladi?
7. Sintagmatik munosabat deb nimaga aytiladi?
8. Pog’onaviy munosabat deb nimaga aytiladi?
9. Morfema va fonema munosabatini tushuntiring.
10. Morfema va so’z shakl munosabatini tushuntiring

So’z strukturası. Morfema va morfema haqidagi nazariyalar

Reja

1. Tilshunoslikda so’z talqini
2. So’zning morfem strukturası
3. Morfema tushunchasi
4. Morfema haqidagi nazariyalar

So’z tushunchasi tilshunoslik tarixidagi muhim o’rinlardan birini egallaydi. Shu bilan birga, tilshunoslikda so’z eng noaniq tushunchalardan hisoblanadi.(A.Nurmonov). Shuni e’tiborga olgan holda ayrim tilshunoslар so’z tushunchasidan voz kechishni taklif qiladilar. Hususan, Sh.Balli shunday deb yozadi: “ Birinchi qarashda so’z tushunchasi aniqqa o’xshab ko’rinadi. Aslida bu tushuncha tilshunoslikda eng noaniq tushunchalardan biridir. So’z tushunchasi noaniq ekan, undan voz kechish kerak”

Tilshunoslik tarixida so’zning tildagi o’rni masalasida ikki yo’nalish maydonga keldi. 1-yo’nalish verbosentrik (lotincha verbum fe’l, so’z demak) nazariya deb nom oldi. Bu nazariyaga ko’ra so’z asosiy birlik sifatida e’tirof etilib, qolgan barcha birliklar so’z bilan qandaydir yo’l bilan bog’langanini, so’z asosida tushuntiriladi.

Mazkur nazaiya ildizi antik davrlarga borib taqaladi. U Yevropa tilshunosligida keng tarqaldi. Rus tilshunosligida keng tarqaldi. Rus tilshunosligi sho'ro davrida markaziy o'rinni egallaydi.

XX asrga kelib tabiiy fanlarda har qanday narsa butunlik sifatida zarralarning yig'indisi va zidligidan iboratligi isbotlandi. Shu asosda tilshunoslikda so'zning ham ma'noni qismlarga bo'linishi haqida fikr yuritila boshladi.

I.A.Boduen de Kurtene tomonidan eng kichik ma'noli birlik bolgan sifatida morfemaning ajratilishi tilshunoslikda katta voqeа bo'lди. So'zga tilning asosiy birligi sifatida qarashga chek qo'yildi, asosiy e'tibor morfemaga qaratildi. Shu tariqa tilshunoslikda morfosentrik nazariya paydo bo'lди. Bu nazariyaning tahlil ob'yekti morfema hisoblanib so'z, so'z birikmasi kabi nazariy muammolar morfema orqali o'rganila boshladi. (N. A.)

An'anaga ko'ra so'z atamasi leksik birlik bo'lган leksemaga nisbatan ham, morfologik birlik bo'lган so'z shaklga nisbatan ham qo'llanilar edi. Aslida esa so'z leksik morfema bilan ko'makchi morfemaning sintagmatik munosabatidan hosil bo'lган butunlikdir. (Ml+Mk)

Morfema tilning eng kichik ma'noli birligidir. Morfema ijtimoiy-ruhiy mohiyat bo'lib, bevosita kuzatishda-nutqda bir necha variantlar orqali namoyon bo'ladi. Morfemaning nutq tarkibida bir necha ko'rinishlarda namoyon bo'lishi allomorflar yoki morfemaning variantlari sanaladi.(A. Nurmonov.)

Morfemalar ham bevosita kuzatishda yondosh allomorflarning fonetik tuzilishiga moslashgan holda qator variantlarga ega bo'ladi. Masalan, o'zbek tilidagi jo'naliш kelishigining til sistemasidagi invariant holati faqat bitta morfema (-ga) bilan belgilansa-da, uning -ga, -ka, -a, -qa kabi variantlari mavjud. Bu variantlarning har birining o'ziga xosligi turli qurshovlarda yuzaga keladi.

Tilshunoslikda morfema haqida yana bir qarash uchraydi. Unga ko'ra morfema atamasi so'z qismlarinigina emas, balki so'zlarni ham belgilaydi. U so'z tahlilidagina emas, so'z birikmalari va gap tahlilida ham ishlatiladi. Buning natijasida morfemani tilning asosiy birligi sifatida qarash vujudga keldi. (F.Sossyur)

V.M.Solnsev morfema atamasi yuzasidan bayon qilingan fikrlarni umumlashtirib, quyidagicha xulosaga keldi:

1. Vandries morfema uchun xarakterli jihat sifatida yordamchilikni ko'rsatadi. Morfema sifatida tilning ohang, urg'u va birliklarning joylashish imkoniyatini e'tiborga oluvchi birlik tushunilgan.
2. Blumfild morfema uchun xarakterli jihat sifatida minimallikni e'tirof etadi. Uning fikricha, morfema tildagi o'rni va boshqa birliklarga munosabatidan qat'iy nazar eng qisqa ma'noli birlikdir.
3. Boduen nuqtayi nazariga ko'ra morfema uchun asosiy belgi minimallikdir. Ammo bu minimallik uning tildagi o'rni va boshqa birliklarga munosabati asosidagi minimallikdir.

O'zbek tilshunosligiga morfema atamasini prof. A. G'ulomov olib kirdi. Uningcha, so'zning ma'noli qismlari morfema sanaladi.

Tayanch so'z va iboralar

Lingvistik sath, lingvistik munosabat, paradigma, morfemika, morfema, fonema, so'z shakl, allomorf, morfem struktura, so'z.

Savollar

1. So'z tushunchasi bilan bog'liq tilshunoslikda qanday fikrlar mavjud?
2. So'z va so'z shakl atamalarining bir-biridan farqini tushuntiring.
3. Morfosentrik nazariyaning afzalliklari namalarda ko'rindi?
4. Verbosentrik nazariyani qanday tushundingiz?
5. Morfema qanday birlik?
6. Morfema va fonema munosabatini tushuntiring.
7. Morfema va so'z shakl munosabatini tushuntiring.

Mavzu: Morfemalar tasnifi

Reja

1. Morfemalarni tasniflash muammolari.

2. Yetakchi morfemalar.
3. Ko'makchi morfemalar.
4. Oraliq morfemalar.
5. Morfemalarnng shakily va mazmuniy xususiyatlari

O'zbek tilshunosligida XXasrning o'rtalariga kelib morfema tushunchasi paydo bo'ldi. Morfema tushunchasi bilan bog'liq qarashlar tahlil etilsa, bu xususda ikki xil holatni ko'rish mumkin: 1) morfemani so'znig tarkibiy qismi sifatida qarash; 2) morfemani tilning eng kichik birligi sifatida qarash. Bu faktni o'ziyoq o'zbek tilshunosligida morfema tushunchasining mohiyati qanday yoritib berilganini, bu haqda turli yondashuvlar mavjudligini ko'rsatib beradi.

Morfemaning so'zning tarkibiy qismi tarzida o'rganilishini ikki davrga bo'lismumkinligini professor A.Hojiyev o'zining "O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari" nomli monografiyasida yoritib bergen. Bunga asosan, morfema tushunchasi paydo bo'lgunga qadar bo'lgan davr va morfema tushunchasi paydo bo'lgandan keying davr ajratiladi. Tilshunoslikda tilga bir butun sistema sifatida qarash yuzaga kelgandan so'ng morfema tilning tarkibiy qismi tarzida o'rganila boshlandi. Darhaqiqat, til ichki tuzilishiga ko'ra sistema ekan, mazkur sistema bir-biri bilan bog'liq bir necha elementlarning munosabatidan tashkil topgan: fonema, morfema, leksema, so'z shakl, sintaksema, matn. Morfema ikki tomonlamamihiyat sifatida fonemalarning sintagmatik munosabatidan tashkil topgan butunlik sanaladi. Morfemika tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida morfemalarni o'rganadi.

Tilshunoslik fani oldidagi dolzarb muammolardan biri morfema tushunchasimohiyati va morfemalar tasnidir. Quyida biz qiyos uchun ulardan bir nechtasini ko'rsatib o'tamiz:

Ko'pgina so'zlar ikki yoki undan ortiq morfemadan iborat bo'ladi (morfema – so'zning ma'noli elementlari). So'zning o'zagi asosiy morfema sanaladi, boshqalari esa affikslar – ergash morfema sanaladi. Demak, so'zda ikki xil morfema bo'ladi: o'zak morfema (asosiy morfema) va affiksal morfema (ergash morfema)". (A. G'ulomov. "Morfologiyaga kirish".)

“...demak, morfema so’zning bo’linmas eng kichik ma’noli qismidir... asosiy xususiyatiga ko’ra, morfemalar ikki turga bo’linadi: 1) o’zak morfema; 2) affiksal morfema.(“Hozirgi o’zbek adabiy tili”. T.,1980)

“O’zak va affikslarning analizi morfologiyada ham, so’z yasalishida ham uchraydi, lekin bu ikki sohaning analizi har xil...dastlab morfemalarning har ikki sohaga aloqador bo’lgan tomonlari ayrim beriladi, bu qism morfemika deb ataladi. Morfemika so’zning eng kichik ma’noli qismlari haqidagi ta’limotdir”.(O’zbek tili grammatikasi.)

Morfemalar biri ikkinchisi bilan bog’liq bo’ladi, biri ikkinchisidan ajratilganda morfemalik xususiyatini ana shu o’rinda yo’qotgan bo’ladi”.(Tojiyev Yo. O’zbek tili morfemikasi. T.,1992.)

“So’zning ma’noli qismlari morfemalar deyiladi... asosiy xusuyatiga ko’ra morfemalar ikki turga bo’linadi: o’zak morfemalar va affiksal morfema”.(“Hozirgi o’zbek adabiy tili”. T., 2004)

“morfema so’zning eng kichik bo’linmas, eng kichik ma’noli qismidir, morfemika so’zning eng kichik ma’noli qismlari haqidagi ta’limotdir tarzidagi “so’zdan morfemaga qarab” prinsipi asosida tuzilgan izohlarni ko’plab uchratamiz.

...”morfemadan so’zga qarab” prinsipiga asoslangan morfema tilning eng kichik, bo’laklarga bo’linmaydigan ma’noli qismidir tarzidagi e’tirof esa so’nggi yillarda uchray boshladi...har ikkala prinsip ham tildagi ma’lum realliklarga asoslanadi, o’z navbatida, biri-birini to’ldiradi”(Mirzaqulov T. O’zbek tili morfem paradigmatisasi va sintag.mas. T.,1994).

Tilshunoslik tarixida morfema tushunchasiga bunday yoondashuvlar xilma-xilligiga qaramay, barcha qarashlarda morfema eng kichik ma;noli qism ekanligi qayd etiladi. Demak, morfema tilning eng kichik, boshqa mayda bo’laklarga bo’linmaydigan ma’noli qismidir. U nutqda bir necha variantlar ko’rinishida namoyon bo’ladi va ular allomorfla deb ataladi.

Morfemalar yuzasidan bayon qilingan barcha qarashlarda morfemalar ikki turga ajratiladi: yetakchi morfemalar va ko’makchi morfemalar. Professorlar Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyevlar morfema deganda faqat qo’shimchalarni nazarda

tutishadi. Biroq til birlklari o'rtasidagi munosabatlardan kelib chiqsak, yetakchi-mustaqlil ma'no anglatadigan morfemalar ham mavjudligi anglashiladi. Demak, morfemalar vazifalariga ko'ra ikki turga: yetakchi va ko'makchi morfemalarga bo'linadi.

Savollar

1. Morfema deb numaga aytildi?
2. Ko'makchi morfema deb nimaga aytildi?
3. Yetakchi morfemaning asosiy belgilari qaysilar?
4. Oraliq morfema tushunchasini qaysi tilshunos olim qarashlarida uchratamiz?
5. Morfemalarning shakli va mazmuni o'rtasida qanday munosabat mavjud?

Mavzu: Ko'makchi morfemalar tasnifi

Reja

1. Ko'makchi morfemalarning asosiy belgilari.
2. Derivatsion morfemalar.
3. Relyatsion morfemalar.
4. Sintaktik shakl yasovchi morfemalar.
5. Lug'aviy shakl yasovchi morfemalar

Сўз ўзгариш парадигмасида ҳамма парадигма аъзолари учун умумий, ўзгармас қисм етакчи морфема, етакчи морфемага кўшилиб, турли

граммтик маънолар ифодаловчи ва лексемани морфологик жиҳатдан шакллантирувчи қисм кўмакчи морфема саналади.

Кўмакчи морфемаларнинг ўзи сўзнинг категорияга хос грамматик маъносини ифодалаш-ифодаланмаслигига кўра икки гурухга бўлинади: а) сўз ўзгартирувчилар; б) шакл ясовчилар.

Сўзнинг муайян категориясига хос фарқловчи грамматик маъноларини ифодаловчи кўмакчи морфемаларга сўз ўзгартирувчилар (категориал морфемалар) дейилади. Масалан, отларнинг келишиқ, эгалиқ, сон категорияларини, феълларнинг замон, шахс-сон, бўлишли-бўлишсизлик, нисбат, майл каби категорияларини ифодаловчи морфемалар.

Сўзнинг муайян категория ичидағи категорияни фарқлаш учун хизмат этмайдиган, лекин турли қўшимча маъно юклайдиган кўмакчи морфемаларга шакл ясовчи морфемалар дейилади. Масалан, отлардаги эркалаш, хурмат ифодаловчи морфемалар; феъллардаги равишдош, сифатдош, ҳаракат номини ҳосил қилувчи морфемалар ва бошқалар.

Туркий тилларда кўмакчи морфемаларнинг етакчи морфемаларга бирикиш даражаси турлича. Шунга кўра кўмакчи морфемалар уч турга бўлинади: 1) эркин морфемалар, 2) боғлиқ морфемалар, 3) нисбий боғлиқ морфемалар².

Етакчи морфемага қўшилиб кетмайдиган, эркин қўлланувчи ва морфологик шаклланган сўз шаклларидан сўнг қўлланиувчи кўмакчи морфемалар эркин морфемалар ҳисобланади. Масалан, кўмакчи, боғловчи ва юкламалар.

Етакчи морфемалардан сўнг келиб, унинг таркибиغا қўшилиб кетадиган кўмакчи морфемалар боғлиқ морфемалар саналади. Сўз урғуси боғлиқ морфемаларга ўтиб, бу морфемаларни етакчи морфемаларга фонетик жиҳатдан ҳам яхлит боғлаб қўяди. Бундай морфемаларга эгалиқ, келишиқ, шахс-сон, замон, майл, нисбат каби категорияларга доир шакллар киради.

² Сравнительно-историческая грамматика... с. 7.

Бир ўринда боғлиқ, бошқа ўринда эса эркин морфема сифатида кўлланиладиган кўмакчи морфемалар нисбий боғлиқ морфемалар саналади. Масалан, грамматикализациялашган ёт, ўтири, юр, тур сингари кўмакчи феъллар.

Туркий тилларда кўмакчи морфемалар етакчи морфемалардан сўнг келиб, етакчи морфеманинг фонетик таркиби мослашади. Шунинг учун кўмакчи морфемалар бир қанча комбинатор варианtlарга эга бўлади. Жумладан, ўзбек тили ҳам ана шу хусусиятни маълум даражада сақлади. Масалан, жўналиш келишиги -га, -ка, -қа, -ға, сингари варианtlар орқали намоён бўлади.

Кўмакчи морфемалар етакчи морфемага агглютинация йўли билан боғланади. Яъни грамматик маъно миқдорига мувофиқ грамматик шакллар сони етакчи морфемадан кейинга қараб ўсиб боради. Кўмакчи морфемаларнинг жойлашиш тартиби уларнинг маъносига бўйсунади: умумий маъноли морфемалар хусусий маъноли морфемалардан олдин келади. Аффикслар даражаланишга қатъий амал қиласди.

Туркий тиллар, жумладан ўзбек тили, агглютинатив хусусиятга эга бўлганлиги учун кўмакчи морфемалар (аосан аффикслар) бир маъноли бўлади.

Ҳар бир грамматик маъно алоҳида-алоҳида моддий ифодасига эга бўлади. Демак, сўз чапдан ўнгта грамматик маънонинг кўпайиши билан чўзилиб боради. Шунга мувофиқ сўз ургуси ҳам сўзнинг охирги бўғинига силжиб туради ва кўмакчи морфемаларини сўзнинг етакчи морфемасига фонетик жиҳатдан мустаҳкам боғлайди, сўзни фонетик томондан шакллантиради ва синтагматикада сўз билан сўзнинг чегарасини кўрсатади. Масалан, бола, болалар, болалармиз, болаларимизга.

Шу билан биргаликда, айрим ҳолларда фузия элементи ҳам учрайди. Бир аффикснинг ўзи икки-уч грамматик маънони ифодалashi ҳам мумкин. Масалан, -ди аффикси III шахс, бирлик, ўтган замон каби грамматик маъноларини қоришиқ ҳолда (синкретик) ифодалайди.

Кўмакчи морфемалар, одатда, етакчи морфемалардан сўнг кўшилади. Шу билан биргаликда айрим ҳолларда етакчи морфеманинг олдидан қўшиладиган кўмакчи морфемалар (префиксlar) ҳам учрайди. Бундай сўз шакллар Мгр + Мл қолипида бўлади. Юқоридаги қолип асосида шаклланган сўзлар табиийки, бошқа тиллардан, хусусан, араб, форс-тожик тилларидан олинган сўзлардир. Масалан, бенарвон, беайб; носоғ, ноумид каби.

Savollar

1. Morfema deb nimaga aytildi?
2. Ko'makchi morfemalar qanday xususiyatlarga ega?
3. Ko'makchi morfemalar qanday turlarga bo'linadi?
4. Derivatsion morfemalar deb nimaga aytildi?
5. Relyatsion morfemalar deb nimaga aytildi?
6. Lug'aviy shakl yasovchi morfemalar deb nimaga aytildi?
7. Sintaktik shakl yasovchilar deb nimaga aytildi?

Mavzu: So'z yasalish strukturasi

Reja

1. So'z yasalishi.
2. O'zbek tilida so'z yasalish strukturasi.
3. So'z yasalish asosi.
4. So'z yasovchi vosita.
5. O'zbek tilida so'z yasash bilan bog'liq ilmiy qarashlar.

O'zbek tili so'z yasalishi tizim sofatida o'z o'rganish ob'yekti, o'z tushunchalari, o'z vazifalariga ega bo'lgan alohida sohadir. So'z yasalishi uzoq yillar davomida tilshunoslik mustaqil sohasi sifatida emas, balki morfologiya sohasining tarkibiy qismi sifatida o'rganib kelindi.

XXasrning ikkinchi yarmiga kelib tilga sistema sifatida qarash boshlangandan so'ng so'z yasalishi ham mustaqil soha sifatida e'tirof etildi. O'zbek tili so'z yasalishi tizimi taraqqiyotida A.G'ulomov, A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev, A.Nurmonov kabi tilshunoslarning xizmatlari katta bo'ldi.

Tilshunoslikning har bir mustaqil bo'limi qatori so'z yasalishi ham o'zining o'rganish birligiga ega. Biroq o'zbek til so'z yasalish tizimini tatqiq etishda ana shu muhim faktga etibor berilmadi.buning asosiy sababi so'z yasalish sistemasi til birligi bo'lgan yasama so'zning boshqa sistemalar til birligiga nisbatan murakkab mohiyatga ega ekanligidadir. Shunga qaramay professor A.Hojiyev to'g'ri ta'kidlaganlaridek, "so'z yasalishi sistemasini shakllantiruvchi til birligining mohiyati qay darajada murakkab bo'lmasin, bu til birligini, uning mohiyatini aniq belgilamay turib so'z yasalishi, yasama so'zlar bilan bog'liq til hodisalarining mohiyatini to'liq yoritib bo'lmaydi".

Soz' yasalishi mustaqil soha sifatida o'z birligiga ega, yani so'z yasalishining o'rganish ob'yekti yasama so'zlardir.

Professor Sh.Rahmatullayev so'z yasash termini o'rniga "leksema yasash" terminini ishlatadi. Bunga sabab so'z yasalishining asosiy birligi bo'lgan yasama so'zning til hodisasi ekanlidir. Demak, yasama so'zlar so'z yasalishi sohasining asosiy birligi bo'lib, ular til hodisasi sanaladi. Yasama so'zlar so'z yasovchi morfemalar yordamida yasaladi. Soz yasalishi asosiy birlikdan tashqari bir qator tushunchalarga ham ega. Quyida ularni qisqacha izohlab o'tamiz.

Har bir yasama so'z ikki qismidan iborat bo'ladi: so'z yasalish asosi va so'z yasovchi.

So'z yasalish asosi-yasama so'zning yuzaga kelishiga asos bo'lgan so'z: *harakatchan, gulzor, ishla*.

So'z yasovchi- so'z yasalish strukturasining tarkibiy qismi, yasama so'zni hosil qiluvchi vosita. U quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

- Soz yasovchining ma'nosи umumiу: *gulli, chiroyli, mevali*.
- So'z yasovchi yasama so'zda bitta bo'ladi.
- So'z yasovchi: suffiks, prefiks.
- So'z yasovchi vazifasida:
- 1) affikslar: -li, -la, -zor, -siz, -ma, -k...
- 2) affiksoidlar: xona, noma, ham...
- 3) yordamchi so'zlar: qil, bo'l, et.

Savollar

1. So'z yasalishi bo'limi nimani o'rganadi?
2. So'z yasalish tizimini tushuntiring.
3. So'z yasalish asosini izohlang.
4. So'z yasovchilar deb nimaga aytildi?
5. Yasalma haqida ma'lumot bering.

Mavzu: O'zbek tilida so'z yasash usullari. Affiksatsiya

Reja

1. O'zbek tilida so'z yasash usullari.
2. So'z yasashning affiksatsiya usuli haqida.
3. Affiksatsiya va so'zning sintetik shakli.
4. So'z yasovchi affikslarning xarakterli jihatlari.

So'z yasalishi yasama so'zlarni o'rganuvchi tilshunoslikning bir sohasidir.

Yasama so'z muayyan bir usul bilan, muayyan bir vosita yordamida hosil qilngan so'z hisoblanadi. Shuning uchun ham so'z yasalish tizimida so'z yasalish usuli degan tushuncha asosiy tushunchalardan sanaladi. O'zbek tilida yangi so'z yasashning bir necha usullari bor.o'zbek tilga oid ishlarda so'z

yasalishi usullari ikkitadan ettitagacha ko'rsatiladi. So'z yasalishining asosiy usullari deb lingistik adabiyotlarda quyidagilar e'tirof etiladi:

1. Semantik usul-bu usul bilan so'z yasalishi deganda so'zning yangi ma'no kasb etishi natijasida yangi so'z hosil bo'lishi, ko'p ma'noliso'zning ma'nolari o'rtasidagi aloqaning uzilishi orqali yangi leksema hosil bo'lishi tushuniladi: kechasi, kun(quyosh)-kun(sutka qismi).
2. Fonetik usul-bu usul bilan so'z yasalishi deganda so'zda tovush o'zgarishi va urg'uning o'zgarishi orqali yangi so'z hosil bo'lishi tushuniladi: ko'r-ko'z; yangi-yangi.
3. Sintaktik-leksik usul-bu usul bilan so'z yasash deganda so'z birikmasining so'zga aylanishi tushuniladi: tokqaychi, jo'xoripoya.

4. Affiksatsiya usuli –asosga so'z yasovchi qo'shimcha qo'shish yordamida yangi so'z hosil qilish: andishali, daraxtzor, ishchan.

5. Kompozitsiya usuli –ikki asosni bir-biriga qo'shish yordamida yangi so'z hosil qilish: boyqush, ko'zoynak.

Yuqorida sanab o'tilgan so'z yasash usullarini tahlil etsak, semantic usul, fonetik usul, sintaktik-leksik usullar yansi so'z yasalishining emas, balki tilde yangi so'z hosil bo'lishining yo'llari ekanligi oydinlashadi. Binobarin, yangi so'z yasash va yansi so'z hosilbo'lishi terminlarini bir-biridan farqlash kerak. Shunday qilib, hozirgi o'zbek tilida so'z yasashning ikki asosi usuli mavjud: affiksatsiya va kompozitsiya.

Savollar

1. So'z yasalishi deb nimaga aytildi?
2. O'zbek tilida so'z yasashning qanday usullari bor?
3. Affiksatsiya usulini tushuntiring.
4. Derivatsion morfemalarning o'ziga xos jihatlari nimalarda ko'rindi?

Mavzu: Kompozitsiya usuli bilan so'z yasalishi

Reja

1. O'zbek tilida so'z yasash usullari.
2. So'z yasashning kompozitsiya usuli haqida.
3. Kompozitsiya va so'zning analitik shakli.
4. Qo'shma so'zlarning hosil bo'lish xususiyatlari.

Kompozitsiya o'zbek tilidagi asosiy so'z yasash usullaridan bo'lib, bu usul yordamida qo'shma so'zlar yasaladi. O'zbek tili so'z yasalishiga oid ishlarda kompozitsiya usuli bilan so'z yasalishi deganda umuman qo'shma so'zlar, qo'shma so'zlar deganda esa kompozitsiya usuli bilan so'z yasalishi tushuniladi. Lekin qo'shma so'zlarning hammasi ham kompozitsiya usuli bilan yasalgan emas, binobarin barchha qo'shma so'zlar kompozitsiya usuli bilan so'z yasalishining ob'yekti bo'lolmaydi. Demak, qo'shma so'zlarning qanday turlari sixron so'z yasalishiga oidligini, so'z yasalishining qandayusuliga mansubligini farqlab olish muhim ahamiyatga ega.

So'z yasalish tizimiga bag'ishlangan ishlarda kompozitsiya so'z yasashning asosiy usullaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Biroq ayrim qarashlarda, xususan, professor A.Hojiyevning qarashlarida kompozitsiya so'z yasash usuli emas, balki til taraqqiyoti davomida yuz beradigan so'z hosil bo'lish usuli hisonlanadi. Hozirgi o'zbek tili materiallariga nazar tashlasak, tilimizda ikki mustaqil ma'noli so'zlarning qo'shiluvidan hosil bo'lgan so'zlar ko'pligini ko'ramiz. Bunda ikki so'zning ma'noliasosida yangi leksik ma'noli so'z, yani leksema yasalgan: ko'z+ oynak=ko'zoynak, sotmoq+ olmoq= sotib olmoq kabi. Shunday ekan, kompozitsiya hozirgi o'zbek tilidagi asosiy so'z yasash usuli ekanligini qayd etish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi o'zbek tilida kompozitsiya usuli yordamida mustaqil so'z

turkumlarining yasalish belgisiga ega bo'lgan to'rttasi-ot, sifat, fe'l, ravish yasaladi.

Kompozitsiya usuli bilan qo'shma otlar yasaladi. Ular quyidagicha tarkibda hosil bo'ladi:

- ot-ot: ko'zoynak, tokqaychi;
- Sifat-ot: Yangiobod, xomtok;
- son+ot: mingoyoq, uchburchak;
- ot+fe'l: beshiktebratar;
- Fe'l+fe'l: iskabtopar

Mazkur usul vositasida qo'shma sifatlar ham yasaladi. Qo'shma sifatlar quyidagi tartibda namoyon bo'ladi:

- 1.**Ot-ot: bodomqovoq, sheryurak;
- 2.**Sifat-ot: qimmatbaho;
- 3.**Sifat+sifat: xomsemiz;
- 4.**Ravish+fe'l: tezoqar,ertapishar;
- 5.**Ot+-aro, umum, yarim, : xalqaro, umumjahon, yarimavtomat.

Kompozitsiya usuli bilan ravishlar quyidagicha hosil qilinadi:

1. U yoqqa, bu yerda;
2. Har vaqt, hech mahal, bir zamon;
3. Allamahal, allavaqt.

Fe'l so'z turkumida ham kompozitsiya usuli bilan so'z yasaladi. Bunda ikki xil ko'rinishda qo'shma fe'llar yasaladi:

- 1.**Fe'l+fe'l: sotib olmoq, borib kelmoq.
- 2.**Ot ++fe'l: bayon qilmoq, tasdiq etmoq kabi.

Savollar

1. So'z yasalishi deb nimaga aytildi?
2. O'zbek tilida so'z yasashning qanday usullari bor?
- 3.Kompozitsiya usuli bilan qaysi so'z turkumlari yasaladi?

4. Qo'sma otlar qanday yasaladi?
5. Qo'shma sifatlarning tarkibini tushuntiring.
6. Qo'shma fe'llar qanday hosil bo'ladi?
7. ravishlar kompozitsiya usuli bilan qanday yasaladi?

Mavzu: So'z tukumlarida so'z yasalishi. Ot yasalishi

Reja

1. So'z turkumlarining yasalish xususiyatlari.
2. Yasalish xususiyatiga ega bo'lgan so'z turkumlari.
3. Ot yasalishi.
4. Affiksatsiya usuli bilan ot yasalishi.
5. Kompozitsiya usuli bilan ot yasalishi.

Mustaqil so'z turkumlari bir qator belgilari bilan yordamchi so'z turkumlaridan farq qiladi. Shnday belgilar qatoriga so'z yasalish ebligi ham kiritilgan. Mustaqil so'z turkumlaridan to'rttasi so'zyasalish xususiyatiga ega: ot sifat, fe'l, ravish. Son va olmosh turkumlari esa yasalish xususiyatiga ega emas.

Ot mustaqil so'z turkumlaridan biri bo'lib, predmetlik tushunchasini ifodalaydi. Otlar asosan, affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan yasaladi.

Affiksatsiya usuli bilan otlar affikslar yordamida yasaladi. Bu usul bilan shaxs otlari, narsa otlari, o'rin-joy otlari, faoliyat-jarayon otlari, mavhum otlar yasaladi.

Shaxs otlari quyidagi affikslar vositasida hosil bo'ladi:
 -chi, -kor, -dor, -kash, -soz, -furush, -shunos, -paz, -xo'r, -boz, -xon, -dosh, -navis : *suvchi, paxtakor, chorvador, soatsoz, mevafurush, tilshunos, oshpaz, oshxo'r, dorboz, kitobxon, sinfdosh, hikoyanavis.*

Narsa otlari quyidagi affikslar vositasida hosil bo'ladi:

-ma, -gi, -ki,-qi, -gich, -m, -im, -k, -q, -oq, -noma, -qin, -g'in, -in: Qatlama, supurgi, turtki, chopqi, ilgich, bilim, elak, taroq, tabriknoma, toshqin,

qirg'in, yog'in.

O'rin-joy otlari quyidagi affikslar vositasida hosil bo'ladi:
goh,-zor, -loq,-lik,iston,-xona, -obod: saylgoh, gulzor, o'tloq, jarlik, guliston,
oshxona, Yangiobod .

Faoliyat-jarayon otlari quyidagi affikslar vositasida hosil bo'ladi:
-chilik, -garchilik -im, -v, -uv: *dehqonchilik, yog'ingarchilik, bilim,*
qurshov, yozuv.

Mavhum otlar otlari quyidagi affikslar vositasida hosil bo'ladi:
-lik, -chilik, -garchilik -m, -im, -ch: *Do'stlik, dehqonchilik, yog'ingarchilik,*
chidam, bilim, qo'rqinch.

Kompozitsiya usuli bilan qo'shma otlar yasaladi. Ular quyidagicha
tarkibda hosil bo'ladi:

- ot-ot: ko'zoynak, tokqaychi;
- Sifat-ot: Yangiobod, xomtok;
- son+ot: mingoyoq, uchburchak;
- ot+fe'l: beshiktebratar;
- Fe'l+fe'l: iskabtopar

Savollar

1. So'z yasalishi deb nimaga aytildi?
2. O'zbek tilida ot yasashning qanday usullari bor?
3. Affiksatsiya usulini tushuntiring.
5. Ot yasashning kompozitsiya usuli haqida ma'lumot bering.
6. Qo'shma ot deb nimaga aytildi?
7. Shaxs otlari qanday yasaladi?
8. Narsa otlari qanday yasaladi?
9. O'rin-joy otlari qanday yasaladi?
10. Faoliyat-jarayon otlari qanday yasaladi?
11. Mavhum otlari qanday yasaladi?

Mavzu: Fe'l yasalishi

Reja

1. Fe'l turkumining yasalish tizimi.
2. Affiksatsiya usuli bilan fe'l yasalishi.
3. Kompozitsiya usuli bilan fe'l yasalishi.
4. Kamunum va serunum fe'l yasovchilar.

Fe'llar ish-harakat yoki holatni ifodalovchi mustaqil so'z turkumididir.

Ular affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan yasaladi. Quyidagi affikslar yordamida yasama fe'llar yasaladi:

la, -lan, -lash, -i, -a, -ay, -sira, -ira, -illa, -ar, -ik: *gulla, faxrlan, birlash, boyi, ata, pasay, suvsira, yaltira, taqilla, oqar, kechik, zo'riq*

Fe'l so'z turkumida ham kompozitsiya usuli bilan so'z yasaladi. Bunda ikki xil ko'rinishda qo'shma fe'llar yasaladi:

- 3.Fe'l+fe'l: sotib olmoq, borib kelmoq.
- 4.Ot ++fe'l: bayon qilmoq, tasdiq etmoq kabi.

Savollar

1. So'z yasalishi deb nimaga aytildi?
2. O'zbek tilida fe'l yasashning qanday usullari bor?
3. Affiksatsiya usulini tushuntiring.
4. Fe'l yasashning kompozitsiya usuli haqida ma'lumot bering.
5. Qo'shma fe'l deb nimaga aytildi?

Mavzu: Sifat va ravish yasalishi

Reja

1. O'zbek tilida sifat yasalishi.
2. Sifat yasashning affiksatsiya usuli haqida.
3. Sifat yasashning kompozitsiya usuli haqida.
4. 4. Ravish yasalishi haqidagi ilmiy qarashlar.
5. Ravish yasashning affiksatsiya usuli haqida.
6. Ravish yasashning kompozitsiya usuli haqida.

Sifatlar predmetning belgisini bildiradi. Ularning bir qator ma'no guruhlari bor.

Yasama sifatlar affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan yasaladi.

Affiksatsiya usuli bilan sifay yasalishi quyidagicha :

1. Egalik belgisi ifodalovchi SYa: -li, -kor, -dor, ser-, -chan, ba-, bo-, -mand, -kash, -chi : suvli, zulmkor, unumdar, sermeva, uyatchan, badavlat, boodob, davlatmand, hazilkash, vahimachi.
2. Ega emaslik belgisini ifodalovchi SYalar: -siz, no-, be-, g'ayri-: suvsiz, nomunosib, beg'am, g'ayriilmiy
3. Nisbiy belgi ifodalovchi SYa: -lik, -gi, -iy, -viy, -ma, -simon, -q, -oq, -qi, -qoq, -kin, -ch, -gir : Shaharlik, kuzgi, devoriy, tarbiyaviy, to'qima, naysimon, iliq, qochoq, sayroqi, tirishqoq, tushkin, tinch, sezgir.
4. Sifatlar otdan va fe'lidan yasovchi qo'shimchalar bilan yasaladi. Binobarin, sifatyasovchilarni quyidagi gurhlarga ajratamiz:
 1. Otdan sifatyasovchi affikslar: *li, -gi(-ki, -qi), -siz, -iy, -viy, -chan, ser-, ba-, bo-, be-, -simon, -dor, -kor, -cha, -mand, -don, -kash, bad-, -bop, xush-, -in, -chil, -lik, -namo, -parvar.*
 2. Fe'lidan sifat yasovchi affikslar: -choq, -chak, -gir, -ma, -k, -q, -oq, -qi, -qoq, -kin, -g'in, -ch, -g'ich .
Sifatlar kompozitsiya usuli bilan ham yasaladi. Qo'shma sifatlar quyidagi tartibda namoyon bo'ladi:
6. Ot-ot: bodomqovoq, sheryurak;

7.Sifat-ot: qimmatbaho;

8.Sifat+sifat: xomsemiz;

9.Ravish+fe'l: tezoqar,ertapishar;

10.Ot+-aro, umum, yarim, : xalqaro, umumjahon, yarimavtomat

Ravishlar ham yasaladi. Bu turkumga oid so'zlar affiksatsiya usuli bilan yasaladi. Quyidagi affikslar yordamida ravishlar yasaladi:: -cha, -larcha, -chasiga, -lab, -ona, -an,-namo, -ligicha: mardlarcha, qisqacha, dehqonchasisiga, koplab, do'stona, taxminan, uyalgannamo, xomligicha.

Kompozitsiya usuli bilan ravishlar quyidagicha hosil qilinadi:

1. U yoqqa, bu yerda;
2. Har vaqt, hech mahal, bir zamon;
3. Allamahal, allavaqt.

Savollar

1. So'z yasalishi deb nimaga aytildi?
2. O'zbek tilida sifat yasashning qanday usullari bor?
3. Affiksatsiya usulini tushuntiring.
4. O'zbek tilida ravish yasashning qanday usullari bor?
5. Ravish yasashning kompozitsiya usuli haqida ma'lumot bering.
6. Qo'shma so'z deb nimaga aytildi?

Foydalangan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar royxati

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфологияси. Т., 1994.
2. Ўзбек тили грамматикаси. I том, Т.: “Фан”, 1975. II том, Т., “Фан” 1976.
3. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили, Т.: Ўқитувчи, 1992.
4. Турниёзов Н., Бекмуродов Й. Матн тилшунослиги. Самарқанд, 2006
5. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек тили. (Қўлланма) Т. 2007
6. Sayfullaeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. (Darslik) T. 2009
7. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили Т. 2006
8. Шоабдураҳмонов Ш., Асқарова М. в.б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. Т. Ўқитувчи. 1980.

9. Sayfullaeva R. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. (Darslik) T. 2010

Қўшимча адабиётлар

10. Нурманов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфологияси. Т., 1992
11. Турсунов У. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили Т., 1993.
12. Шоабдураҳмонов Ш. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., 1980.
13. Ғуломов А.Ф. Феъл. Ўздавнашр, Т., 1955.
14. Ҳожиев А. Ўзбек тилида сўз ясалиши, Т.: Ўқитувчи, 1989.
15. Тожиев Ё. Ўзбек тили морфемикаси, Т.: ТошДУ, 1992.
16. Жўрабоева М. Ўзбек тили морфологияси, Феъл (маъруза матнлари), Т.: ТошДУ 1999.
17. Журналлар: «Ўзбек тили ва адабиёти», Тил ва адабиёт таълими», «ЎзМУ хабарлари» (1991-2007 йй).
18. Илмий тўпламлар: ТошДУ илмий асарлари. Тилшунослик масалалари (1991-2007 йй).
19. Абдураҳмонов F. Қўшма гап. Ўз.ФА нашриёти. Т., 1957.
20. Абдураҳмонов F. Ўзбек тили грамматикаси. Т.1995.
21. Маҳмудов Н., Нурманов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Т.:Тошкент, 1995.
22. Маҳмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. Т., “Ўқитувчи”, 1984.
23. Неъматов X., Ғуломов А. в.б. Она тили. Умумтаълим мактабларининг 5-6-7-8-9-синфлари учун дарслик. Т., 2002.
24. Неъматов X., Сайфуллаева Р., Курбонова М. Ўзбек тили структурал синтаксиси асослари. Т., “Университет”. 1999.
25. Нурмонов А. ва б. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. Т.Фан,1992
26. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. Т.2006.
27. Сайфуллаева Р.Ўзбек тилида қўшма гапнинг шакл-вазифавий талқини.- Т.: Фан,1994.
28. Сайфуллаева Р.Р. Ҳозирги ўзбек тилида сўз бирикмалари.Т., 2000.
29. Сайфуллаев Р.Р. Ҳозирги ўзбек адабий тилида гап бўлакларининг семантикаси ва грамматикаси. Т., “Фан”.2000.
30. Курбонова М ва б. Ўзбек тилининг структурал синтаксиси. Т.: Университет.2004.
31. Курбонова М.М. Ҳозирги замон ўзбек тили, Содда гап синтаксиси учун материаллар. Т., “Университет”, 2002.
32. Курбонова М.М. Бош бўлаклар талқинига доир. Т., “Университет” 1998.
33. Курбонова М.М. Ҳозирги замон ўзбек тили, Содда гап синтаксиси учун материаллар. Т., “Университет”, 2002.
34. Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили I-II қисм. Т., 2004.
35. Миртоҷиев М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., 2004.
36. Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., 2005.
37. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т, Ўқитувчи, 1961, 1965(2-нашр), 1987(3-нашри).

38. Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек тилида қўшма гапларнинг субстанционал (зотий) тадқиқи. Т. Фан, 2007.
39. Ҳожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. Т.Фан. 2010. 256 б.
- 40.Ҳозирги ўзбек адабий тили. ЎУМ, ЎзМУ 2011. Ўзбек филологияси факультети кутубхонаси.
41. www.ziyo-net.uz